

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“MOLIYA” KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 36:338.(575.1)

Saidrasulov Ibrohim Ixtiyor o‘g‘li

Mavzu: Milliy iqtisodiyotda sug‘urta bozorini rivojlantirish masalalari.

5A230601 - “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: dotsent

X.Do‘stmuhammad

Toshkent – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “ Moliya ”
kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

22 -sonli bayonnoma “ 26 ” april 2023 y.


Kafedra mudiri

X. Xudoyqulov


imzo sana


Ilmiy rahbar:

X. Dostmuhammad


imzo sana

Talaba:

I. Saidrasulov


imzo sana

Dissertatsiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

2023 yil “ 22 ” may

№ MBF-01/9 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

ANNOTATSIYA

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rni bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil falokatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik obyektining tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan kamomadlarni tiklash, ularning oldini olish tadbirlarini ko'rishga ham intilmoqda. Shuning natijasida bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urtaga bo'lgan talab kuchaya boshladi.

Kalit so'zlar: *Sug'urta, tijoratga asoslangan sug'urta sug'urta fondi, sug'urta bozori, sug'urta obyekti va predmetlari, sug'urta dalolatnomasi, sug'urta qoidalari, tafakul, islom moliyasi.*

ABSTRACT

The purpose of this article is to develop proposals and recommendations on the level of competition in the national insurance market of Uzbekistan, its indicators, measures to ensure competition in the domestic insurance market and especially healthy competition, based on the experience of foreign countries, in particular, to improve the legal framework. In addition, the article develops proposals and recommendations for the development of non-popular forms of insurance in the country in order to increase the level of competition and increase the volume of insurance services.

Key words: *Insurance, commercial-based insurance, mutual insurance, takaful insurance, competition, healthy competition, transparency, tender selection, tariff rate, tafakul*

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	12
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	13
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	14
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti.....	14
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	15
1.6. Dissertatsiya tarkibining qisqacha tasnifi.....	15
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	16
2.1. Kirish.....	17
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	17
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	19
2.4. Xulosa.....	22
III BOB. METODOLOGIYA.....	23
3.1. Tadqiqot dizayni.....	23
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	23
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	23
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	24
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	24
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	24
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	25
4.1. Iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini rivojlantirish	25

4.2. O'zbekistonda islomiy sug'urta bozorining shakllanish va rivojlanish muammolari.....	36
4.3. O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish va boshqarish muammolari..	47
V BOB. XULOSA.....	53
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	53
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	55
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	57

I BOB. KIRISH

Sug'urta ijtimoiy munosabatlar tarixiy kategoriyalaridan biridir. U jamiyat qurilishining ilk davrlaridan yuzaga kelib, asta-sekin ijtimoiy ishlab chiqarishning ajralmas hamroxiga aylandi. Sug'urta iborasining birlamchi ma'nosi «qo'rquv» («strax») so'zi bilan bog'liqdir. Mulk egalari bir-birlari bilan ishlab chiqarish munosabatlariga kirishar ekanlar, mulkning saqlanishiga, tabiiy ofatlar, yong'in, o'g'irlik va iqtisodiy hayotning boshqa ko'zda tutilmagan xavf-xatarlari natijasida yakson bo'lishi yoki yo'qotilishiga nisbatan qo'rquv xis etganlar. Ijtimoiy ishlab chiqarishning tavakkalchilik xarakteri – bu mulk egasi va tovar ishlab chiqaruvchining moddiy farovonligi uchun xavotirlanishining asosiy sababchisidir. Shu asosda moddiy zararni manfaatdor mulk egalari o'rtasida birgalikda qoplash g'oyasi yuzaga keldi. Ko'rilgan zararni qoplashning ancha oddiy shakli natural sug'urta bo'lgan. Don, yem-xashak va boshqa bir turdagi oson taqsimlanadigan mahsulotlar hisobidan alohida talofat ko'rgan dehqon xo'jaliklariga moddiy yordam ko'rsatilgan. Bunday sug'urta, albatta, bir qancha chegaralangan bo'lib, keyinchalik tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan o'z o'rnini pul shaklidagi sug'urtaga berdi. Rivojlangan jamiyat sharoitida sug'urta mulkchilikning barcha shakllarini, korxonalar, tashkilotlar, fuqarolar daromadlari va boshqa manfaatlari himoyasining asosiy vositasiga aylandi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda va aholini ko'ngilsiz hodisalardan himoya qilishda sug'urtaning o'ziga xos muhim o'rni bor. Sug'urta ishlab chiqarishning zarur unsurlaridan biri sifatida bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim iqtisodiy dastaklaridan hisoblanadi. Sug'urta bozori mulkchilikning deyarli barcha shakllarini tabiiy ofatlardan saqlashda, xilma-xil falokatlar natijasida odamlarga yetkazilgan zararlarni qoplashda moddiy jihatdan yordam beradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o'z ta'sirini ko'rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Endilikda har bir xo'jalik obyektining tashkilotchisi o'z ixtiyoridagi mol-mulkdan samarali foydalanish uchun fidokorona harakat qilish bilan cheklanib qolmay, favqulodda va tasodifiy zararlarning natijasida yetkazilishi